

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

4
2025



<i>Ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. Ta'sischi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1992-yildan chiqa boshlagan Jumal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)</i> Bosh muharrir: G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.) Tahrir hay'ati: D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari) X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib) A. MANNONOV (prof., f.f.d.) Q. SODIQOV (prof., f.f.d.) R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.) SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.) Q. OMONOV (prof., f.f.d.) U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.) D. MUHIDDINOVA (f.f.d.) X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD) B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.) A. XODJAYEV (prof., t.f.d.) M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.) X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.) D. XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD) SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.) N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.) A. VAHOBOV (prof., i.f.d.) R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.) I. MAVLANOV (prof., i.f.d.) R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.) E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.) A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.) G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.) ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.) LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.) V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.) A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.) A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi) G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.) A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori) S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD) H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.) Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV H. SULAYMONOVA Jumal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jumal original-maket asosida bosildi. Sharq mash'ali, 2025-yil 4-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz	SHARQ MASH'ALI ISSN 2010-9709 MUNDARIJA № 4, 2025-yil Adabiyotshunoslik Muxibova U., Xodjayeva N. <i>Omprakash Valmiki hikoyalarida past tabaqa vakilining jamiyatdagi o'rni</i> 3 Abdurahmonova M. <i>Nazir akbarobodiy she'riyatida hind milliy qadriyatlari ifodasi ..</i> 12 Shamusarov Sh. <i>Arab mifologiyasining yuzaga kelishi va uning Markaziy Osiyo xalqlar i folkloriga ta'siri</i> 21 Ziyamuhamedov Z. <i>Milliy qadriyatlarning xitoy adabiyotidagi aksi.....</i> 30 Muxiddinova D. <i>Misr adibi Edvar Al-harrat hikoyalarida modernistik unsurlar</i> 34 Sharipov R. <i>Jadid adabiyotida oilaviy qadriyatlar talqini</i> 48 Mutalova G. <i>Folklore roots of arabic oral storytelling.....</i> 57 Turdiyeva O. <i>Afsona va yozma adabiyot kontekstida eskimoslar hayoti tasviri</i> 66 Saidova N. <i>Abdulloh Abdur-rahman Jafrining "Ko'zgu" hikoyasida oilaviy-mayishiy muammolar</i> 75 Abduganieva N. <i>The formation of literary communities in India during the middle ages</i> 84 Qoraboyev S. <i>G'ulom G'avs Xaybariyning tarixiy romanlarida syujet masalasi</i> 93 Sulaymonova H. <i>Abu Bakr Xorazmiy asarlarida umuminsoniy qadriyatlar in'ikosi.....</i> 98 Zakirova U. <i>Dipti Nazir Ahmad romanlarida ayollarning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti masalalari xususida.....</i> 109 Murtazaxodjayeva M. <i>Chinnappa Bharati romanlarida badiiy psixologizm ("Shakar" romani misolida).....</i> 120 Sa'dullayev Sh. <i>Bahodirshoh II Zafar g'azallarida aks etgan sharqona unsurlarning tasnifi</i> 129
--	--

Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.		Tilovmurodova Sh. Madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar: Nirmal Varma hikoyalariida mustaqillikdan keyingi inson obrazi.....138 Xamidova V. Fors va o'zbek adabiyotida madaniy qadriyatlarning ifodalanishi hisob so'zlar misolida.....147 Raufova Sh. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" memuar qissasidagi she'riy parchalar tarjimasining tahlili: madaniy va poetik ekvivalentlik masalalari156 Abdupattaxov J. O'rta Osiyo Naqshbandiya-mujaddidiya tarmog'i vakillarining manbalarda yoritilish masalalari165
	Tilshunoslik va tarjimashunoslik	Vaxidov A. XII- XV asrlarda Markaziy Osiyo turkiyzabon adabiy asarlarida tasavvuf terminlari..... 174 Xodjayeva N. Hindiydan o'zbek tiliga badiiy tarjimada genderonimlarning berilishi 183 Nandini B. Historical Relevance of Translating Abdurrauf Fitrat's Narratives on Hind (India) During the Colonial Days 192 Khodjaeva D., Sotiboldiyeva K. Switchlingua: exploring cultural expressions in South and Central Asia 201 Umarova M. O'zbek urdushunos olimlarining adabiy aloqalar rivojida o'rni 210 Rakhmatjonova K. Features of intercultural cultural expression 219 Nurmatova Z. Hindiy tilidagi omonimlarning badiiy-lisoniy tahlili..... 228 Saidnazarova N. Hindiy tilidagi "sifat + ot" va "ot + ot" modelidagi atributiv so'z birikmalarining badiiy-lisoniy xususiyatlari 237
	Tarix	Omonov Q. "Temur tuzuklari" Turon davlatining boshqaruv qonunlari sifatida 246 Yovqochev Sh., Kadirova G. Outstanding scientists, thinkers and statesmen of Central Asia 255 Chowdhury R. Tuzuk-i-Baburi: The confessions of a reluctant poet-conqueror 264



MILLIY QADRIYATLARNING XITOIY ADABIYOTIDAGI AKSI

JASUR ZIYAMUHAMEDOV

Filologiya fanlari doktori, professor, TDSHU

Annotatsiya: Sharq xalqlari adabiyoti va xususan xitoy adabiyoti ba'zida soddaligi, ba'zida murakkabligi, va eng asosiysi, noan'anaviyligi, hamda janrlar xilma-xilligi bilan boshqa xalqlar adabiyotidan keskin farqlanib turadi. Unda mavzular ko'lami juda keng, kompozitsion qurumi o'zgacha. Xitoy adabiyoti ko'hna tarixga ega va an'analarga boy. Biz mazkur maqolamizda xitoy adabiyotidagi asosiy bosh va yetakchi g'oya bo'lgan milliy qadriyatlar, milliy mafkura masalasining yoritilishi haqida fikrlashamiz.

Калит сўзлар: ёзма ёдгорлик, “Шижинг”, “Шоҳликлар урфлари”, “Учиохлик”, “Дарё ўзанлари”, “Фарбга саёҳат” ва “Қизил қўшқдаги туш”

Annotation. The literature of the Eastern peoples, and Chinese literature in particular, is sometimes simple, sometimes complex, and most importantly, unconventional, as well as diverse in genres, sharply differs from the literature of other peoples. It has a very wide range of topics, and a unique compositional structure. Chinese literature has a long history and is rich in traditions. In this article, we will consider the issue of national values and national ideology, which are the main and leading ideas in Chinese literature.

Key words. Written memorial, "Shijing", "Traditions of Kingdoms", "Three Kingdoms", "Riverbeds", "Journey to the West" and "A Dream in the Red Room"

Kirish. Adabiyot bir xalqni dunyoga tanitadigan va kezi kelsa uni mashhur qiladigan ulkan va qudratli kuchga ega. Badiiy adabiyot insoniyat ma'naviyatining asl sarchashmasi, bashariyatning ruhiy asoslaridan biri, insonning qalb xarorati in'ikosi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning ilmiy o'rganilishi inson yuragida, uning ko'ngil ko'zgusida aks etgan o'ziga xos takrorlanmas, falsafiy, irfoniy, axloqiy-ta'limiy va ma'naviy ruhining shakllanish jarayonlari, ifodalari, mohiyati va yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi. Darhaqiqat, insoniyat ichki olamini boyitadigan, uning dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan g'oyalar talqini, ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi va buning natijasida milliy adabiyotning takomili masalalarini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik ilmining, balki milliy o'zanda rivoj topayotgan badiiy adabiyotning takomiliga, adabiy jarayonning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Xitoy milliy qadriyatlarini taxlil qilishda umumiy germenavtik, tarixiy qiyosiy va tarixiy madaniy metodlardan foydalanildi, zero, milliy qadriyatlarining shakllanishi uzoq qadimiy davrlardan boshlanib, millat taraqqiyotining har bir bosqichida adabiy asarlarda aks etib keladi.

Erishilgan natijalar. Xitoy adiblari ijodiy merosi saxifalarida aks etgan aynan xitoy xalqiga xos bo'lgan milliy qadriyatlar masalasi o'rganildi. Turli davrlarada, Xitoyning turli xududlarida istiqomat qilgan shoir va yozuchilari ijodida o'ziga milliy qadriyatlarining aks etgani adiblar asarlari misolida masalaga oydinlik kiritildi.

Muxokama. O'zini, o'zligini, xalqi va vatanini sevgan har qanday ijodkor bu mavzuni chetlab o'tmaydi, degan e'tiroz bo'lishi tabiiy. Biz bu e'tirozga to'liq qo'shilamiz. Lekin, xitoy adabiyotidagi qariyb har bir asarda, asarning janri, yozilgan davridan qat'iy nazar, bu mavzu ustivor. Xitoy adabiyotining ilk yozma yodgorliklaridan biri “Shijing” asariga kirgan uch yuz beshta she'riy



asarlar bilan tanishar ekanmiz, xitoy millati, odatlari, so'zlashish va fikrlash uslubi, mamlakat tabiiy sharoiti haqida mae'lumot beruvchi ta'riflarni uchratamiz. Hatto bu yozma yodgorlikning eng katta birinchi qismi ham “国风” ya'ni “Shohliklarning urflari” deb nomlanadi.

Xitoy adabiyotdagi hoh nazmiy, hoh nasriy asarlarni olmaylik, albatta ularda xitoy millatining shukhi va nafasi ufurib turadi.

Tang davrining mashhur shoirlari Du Fu, Li Bai, Wang Wei va boshqalarning¹ asarlari milliy adabiyotning yorqin namoyondalari sifatida xitoy adabiyoti tarixidan munosib o'rin egalladilar. Bu davrda ikki buyuk shoir Li Bai (李白) va Du Fu (杜甫)dan tashqari boshqa ko'plab o'z zamonasining buyuk shoirlari ham yetishib chiqdi. Har bir shoirning o'z uslubi va o'z yo'li bor edi. Umuman olganda bu davr shoirlarini ijod yo'nalishi bo'yicha ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh shoirlari tog', daryo, qishloq manzaralarini yoritib halovatli hayotni kuylash borasida o'z ijodlarini olib borishgan bo'lsa, ikkinchi guruh shoirlari esa asosan urushda qatnashayotgan o'z vatandoshlari, lashkarlar, vatan himoyasi va jangu jadallarni tasvirlaydigan she'rlar bitishgan. Tog'-daryo va qishloq manzaralari she'riyati guruhining asosiy vakillari Min Xiaojan (孟浩然) va Wang Wei (王维) lar bo'lib ular Tang she'riyatida tog'-daryo va qishloq manzaralari she'riyat oqimini rivojlanishiga o'zlarining nihoyatda yuksak hissasini qo'shishdi.² Ushbu davr buyuk shoir va yozuvchilarning qalamiga mansub bir qator asarlar xitoy adabiyoti cho'qqisiga chiqadi. Tang davrigacha va undan keyin paydo bo'lgan va rivojlangan kichik epik janrlardan bo'lgan xuaben“话本”, byanwen“变文”, chuanqi“传奇” janrlarida ham xitoy millatiga xos urf odatlar, an'analar, marosimlar va bayramlar haqida ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz.

Mamlakat tarixi va xalqning shakllanishi, dunyoqarashi haqida so'zlovchi buyuk asarlardan “Uchshoxlik” 《三国演义》, “Daryo o'zanlari” 《水浒传》, “G'arbga sayohat” 《西游记》 va “Qizil ko'shkda tush” 《红楼梦》 kabi xitoy adabiyotini dunyoga mashhur qilgan romanlarini yaqqol misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha bu asarlar aynan xitoy mentaliteti bilan bog'liq asarlardir. Avvalo, bu to'rt roman badiiyatidagi o'ziga xos o'xshashliklar haqida to'xtalsak. Mazmunan mazkur asarlar bir-biridan farq qilsada, roman yozilishida qadimiy va o'rta asr xitoy madaniyati va mafkurasi, xalq yashash tarzi, urf va an'analari hamda tarixi kabi mavzulardan unumli va o'rinli foydalaniladi. Qadimiy an'analar har bir romanda juda yaxshi saqlangan. Mazkur romanlarning har biri xitoy adabiyotida o'ziga xos o'rin egallashi bilan birga, xitoy tilshunosligi, tarixi, geografiyasi va etnografiyasini o'rganish uchun asosiy ma'lumotlar manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Bu asarlar xitoy madaniyatiga shu darajada singib ketganki, uning ajralmas bir qismi sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga asarlarning xalq madaniyatiga ta'sirini milliy xarakter va milliy madaniyatda, chunonchi, qo'shiq, kartina, hikoya, teatr postanovkalari, kino asarlarida aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda Xitoyda ushbu asarlardan bexabar bo'lgan bironta xitoylik yo'q. Romanlar avloddan avlodga o'tib, har bir xitoylik qalbidan o'ziga hos o'rin egallagan. Har bir xitoylik o'ziga ma'qul bo'lgan va o'ziga yaqin bo'lgan qismini yoddan o'rganib, ba'zan hayotiy shioriga ham aylangan.

Xitoy yangi davr adabiyotiga xos asarlar revolyutsion kayfiyat bilan yo'g'rilgan bo'lsada, ayrim syujet elementlarida xitoy milliy kayfiyati sezilib turadi. Yangi davr xitoy adabiyotini

¹ Tang davrida (618–907) xitoy adabiyotida she'riyatning gullab yashnashi va Li Bo, Du Fu, Meng Xian, Wang Wei, Bo Szyuy i, Li Shanin kabi buyuk shoirlar yashab ijod etgan davr deb e'tirof etiladi.

² J.Ziyamuhamedov, O.Ochilov, S.Nasimova. Xitoy adabiyoti. (“Sharq xalqlari adabiyoti tarixi” turkumidan 7-kitob) Toshkent: “Extremum-Press”, 2016. B.158.



shakllantirishda va rivojida ishtirok etgan Lu Sin, Mao Dun, Lao She, Chjao Shuli va boshqalar adabiyot tilini xalq tiliga yaqinlashtirdilar. Hattoki Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori Mo Yan uzoq yillar davomida chet elda yashab, yozgan asarlaridan ham “Yevropa nafasi” kelib tursada, asli Xitoylik ekanini unutgani yo‘q. Millat fojeasi, millat tanazzuli masalalari uning asarlari bosh g‘oyasi bo‘ldi. Yozuvchining fikricha, «oxirgi 30 yil davomida Xitoy sezilarli ravishda nafaqat moddiy, balki fuqarolarning intellektual va ma’naviy o‘lishni boshdan kechirdi. Bu o‘lish yaqqol ko‘zga tashlanadi, shu bilan birga biz kundalik hayotda qoniqmaydigan boshqa ko‘p narsalar bor. Xitoy kattalashib ketdi, shu bilan birga yangi muammolar vujudga keldi, masalan, ekologik muammolar, shuningdek, yuqori ahloqiy standartlar xam tushib ketdi... — deb ta’kidlaydi Mo Yan.

“Ildizlarni izlash” adabiy yo‘nalishi Xitoyda 70 yillar oxiri – 80 yillar boshlarida paydo bo‘lgan. Bu davrda “madaniy inqilob” davri hodisalari qayta ko‘rib chiqilgan, “ochiq eshiklar islohoti” amalga oshirilgan, bu davrda ayniqsa g‘arb madaniyatining ta’siri kuchli kechgan, bu esa o‘z navbatida adabiyotning rivojiga ham katta ta’sirini o‘tkazgan¹.

O‘n yil uzoq va og‘ir kechgan “madaniy inqilob” davrida hitoy aholisi jaholat va bilimsizlik girdobida qolib ketadi, ziyolilar orasida tushkunlik kayfiyati avj ola boshladi. Bu vaziyatni bartaraf etish uchun xitoy yozuvchilari millatning hayotiy asosidan tashkil topgan an’anaviy madaniyatni qaytarish uchun “madaniy ildizlarni izlash” fikrini ilgari surishadi. Shu bilan birga “Madaniy ildizlarni izlash” yo‘nalishi yozuvchilarining adabiy uslublariga va “izlash usullari”ga chet el adabiyoti ham kuchli ta’sirini o‘tkazdi. XX asr 80 yillarida Kafka, Borxes, Garsia Markes, Joys, Folkner, Kavabata Yasunari asarlarining tarjimasi chop etildi, bu esa o‘z navbatida ziyolilarning ijodiy kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. “80 yillar boshlarida chet el adabiyoti bilan yuzma yuz kelib, Uilyam Folknerning “Shovqin va g‘azab” asarini, Gabriel Garsiya Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili”, Frans Kafkaning “Evrilish”, Kavabata Yasunarining “Qor mamlakati” asarlarini o‘qib, men huddi uyqudan uyg‘ondim. Bundan oldin men bunday yozish mumkin ekanligini tasavvur ham qilmagandim”², deydi Mo Yan ko‘plab bergan intervyularining birida.

Endilikda “4-may harakati”, “madaniy inqilob” davrida tushunilgan realizm tushunchasidan uzoqlashib, asarlarga afsonalar, mo‘jizalar, ertaklar, xalq dinlari unsurlari kirib kela boshladi.

Axloqiy qadriyatlarning toptalishi, xitoy millatiga xos bo‘lmagan odatlardan biri- insonlarni xo‘rlash va kamsitish, bolalar tarbiyasiga jiddiy e’tibor bermaslik kabi kabi salbiy odatlarning jamiyatda yuzaga kela boshlashi, adbiyotda ham qattiq tanqidga sabab bo‘la boshladi. Chunki bular milliy qadriyatlarni ham oyoqosti qilinishiga ta’sir ko‘rsata boshladi.

Bu kayfiyatni hatto bolalar adabiyotida ham kuzatamiz. Xitoy oilalarida bobo va buvilarning roli, ularning bolalar tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati (奶奶, 我爱你 (Sizni yaxshi ko‘raman, buvijon) va 我的奶奶 (Buvijonim) hikoyalarida), ustoz va shogird munosabatlari, ustozlarga hurmatning shakllanishi (绿色的苹果 (Yashil olma) va 路标 (Yo‘l belgisi) hikoyalarida), yosh avlodni o‘stirishda bir-birlariga o‘zaro yordam berish tamoyillari asosida tarbiyalash (画照片 (Rasm chizmoq) hikoyasida), jamiyatda ta’lim va ahloqning, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga e’tiborli bo‘lish an’analarining ustivorligi (老人的黑帽子 (Qariyaning qalpog‘i), 年历送给谁 (Taqvimni kimga sovg‘a qilishdi), 小鸡哥哥 (Jo‘ja aka) va 红砖头的故事 (Qizil g‘isht hikoyasi)

¹D. S. Сыренова. Vestn. Buryat. gos. un-ta. - Ulan-Ude, 2010. - Вып. 8: Vostokovedeniye.

² http://typicalwriter.ru/m/news.php?id=sovremennyye_kitayskie_pisateli:_mo_yan
Sovremennyye kitayskiye pisateli: Mo Yan muallif: Yekaterina Chernova



hikoyalarida)¹, milliy qadriyatlarga hurmat mezonining barqarorligi kabi- milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi masalalar, zamonaviy bolalar adabiyotida ham dolzarb mavzu bo'lib qoldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadimdan xitoy adabiyotida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi syujetlar xitoy adabiyotida eng asosiy mezon hisoblangan. Milliy xarakter va an'anaviy madaniyatni targ'ib qilish har qaysi davr adabiyotining asosiy bosh mavzusi va g'oyasi sanalgan. Xitoylik ijodkorlar o'z vatanparvarlik tuyg'ulariga sodiq qolgan holda hamisha milliy mafkura va milliy g'oya mavzularini asarlarida targ'ib etishdan hech charchamaganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, biz xitoy adabiyotidagi milliy qadriyatlar bilan bog'liq mavzularni tasniflab quyidagi uch guruhga bo'lishga qaror qildik:

1. Vatanparvarlik tuyg'usi aks etgan asarlar (bularda xitoylik ijodkorlar o'z vatanlarini tarannum etadilar, vatanga muxabbat g'oyalarini targ'ib qiladilar, Xitoy hududi bilan bog'liq geografik joy nomlarini o'ziga xos ravishda tanishtiradilar va ularni go'zal badiiy tasvir vositalari bilan tasvirlaydilar).

2. Xitoy millatiga xos mehr-vafo, muruvvat va muhabbat tuyg'usi aks etgan asarlar (mazkur mavzudagi asarlarda xitoyliklarning muhabbat borasidagi nozik his-tuyg'ulari va yor vasfini kuylashda o'ziga xos yondoshuvning guvohi bo'lamiz).

3. Oilaviy munosabatlarni aks ettiruvchi asarlar (Ijodkorlar bu asarlarda xitoy millatiga mansub oilalardagi odatlar, ulardagi qaynona-kelin munosabatlari, qariyalarni qadrlash va e'zozlash, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq jihatlarni tasvirlaydilar.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 马积高.中国古代文学史.人民文学出版社.2009年.
2. 游国恩、王起、萧涤非、季镇.中国文学史(修订本)游国恩版《中国文学史》.人民文学出版社.1963年.2002年第二版.
3. О.Л. Фишман. "Сон в красном тереме", История всемирной литературы- т.5. - М,1988. -593 бет.
4. Алексеев В. М. Труды по китайской литературе: В 2 кн. – М.: Наука, 2002-2003.
5. Воскресенский Д.Н. Литературный мир средневекового Китая. Китайская классическая проза на байхуа: Собрание трудов. – М.: 2006.
6. Воскресенский Д.Н. Литературный Китай в XVII веке. – М.: 2009.
7. Ж. Зиямухамедов, Д. Бадалбоев."儿童故事 BOLALAR UCHUN HIKOYALAR"-Т.: 2017
8. Д. С. Цыренова. Вестн. Бурят. гос. ун-та. - Улан-Удэ, 2010. - Вып. 8: Востоковедение.
9. http://typicalwriter.ru/m/news.php?id=sovremennyye_kitayskie_pisateli:_mo_yan



¹ Misollarda ko'rsatilgan barcha hikoyalar filologiya fanlari nomzodi, dotsent Jasur Ziyamuhamedov va Dilshod Badalboyevlar tarjima qilgan va 2017-yil nashrdan chiqqan "儿童故事 BOLALAR UCHUN HIKOYALAR" tarjima kitobidan olingan.